

## SEHRLI RAQAMLAR FENOMENI: MIF–MAROSIM–FOLKLOR KESISHUVINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Sayfiddinova Munisa Fahriddin qizi  
Turan International University o‘qituvchisi  
Email:msayfiddinova94@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18986036>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada folklor matnlarida uchraydigan “sehrli raqamlar” fenomeni mifologik tafakkur, marosimiy amaliyot va folklor poetikasi tizimi doirasida nazariy jihatdan yoritiladi. Raqamlarga sirli va muqaddas mazmun yuklash qadimgi insonning olamni anglashga intilishi, tabiat hodisalarini ramziy modellashtirish hamda ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi marosimlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Antropologik va madaniy-tarixiy izlanishlarda sanoq amaliyoti ibtidoiy jamiyatda mantiqiy abstraksiya sifatida emas, balki kollektiv-mistik tasavvurlar bilan qorishgan holda paydo bo‘lgani qayd etiladi. Shu jarayonda ayrim sonlar (3, 4, 5, 7, 9, 12, 40 va b.) real miqdor bildiruvchi birlik bo‘lishdan tashqari, “chegara”, “yakun”, “sinov”, “baraka”, “himoya”, “mukammallik” kabi semantikalarni turg‘un ifodalovchi madaniy kodga aylangan. Semiotik va mifosemiotik yondashuvlar sonni arxaik matnning struktur element sifatida talqin qilib, raqamlarning kosmogonik model hamda semantik chegaralovchi belgi sifatida ishlashini asoslaydi. Struktur va poetik-funksional tahlilda esa raqamlar syujet-kompozitsion mexanizmning muhim bo‘g‘ini sifatida ko‘riladi: uch martalik urinish, uch sinov, uch vazifa kabi qoliplar ertak va epik matnlar dinamikasini, ritm va esda qolish mexanizmlarini mustahkamlaydi. Maqolada “sehrli raqamlar” va “an’anaviy raqamlar” farqi metodik mezon sifatida ajratilib, o‘zbek hamda ingliz folklori materiallarini qiyosiy o‘rganishda bu farqlashning ilmiy samaradorligi ko‘rsatiladi.

**Kalit so‘zlar:** sehrli raqamlar, sakrallik, mif–marosim–folklor, semiotika, mifosemiotika, struktur tahlil, lingvopoetika, kompozitsion qolip, qiyosiy folklor.

**Аннотация:** В данной статье феномен «магических чисел» в фольклорных текстах рассматривается в теоретическом аспекте в рамках системы мифологического мышления, обрядовой практики и поэтики фольклора. Наделение чисел сакральным и таинственным содержанием сформировалось в тесной связи с древним стремлением человека к познанию мира, символическим моделированием природных явлений и ритуалами, регулирующими социальную жизнь. Антропологические и культурно-исторические исследования показывают, что счётная практика в первобытном обществе возникла не как логическая абстракция, а в синкретическом единстве с коллективно-мистическими представлениями. В результате отдельные числа (3, 4, 5, 7, 9, 12, 40 и др.), помимо количественного значения, превратились в устойчивые культурные коды, выражающие такие семантики, как «граница», «завершённость», «испытание», «благословение», «защита», «совершенство». Семиотический и мифосемиотический подходы интерпретируют число как структурный элемент архаического текста и обосновывают его функционирование в качестве космогонической модели и семантического маркера границы. В рамках структурно-поэтического и функционального анализа числа рассматриваются как важное звено сюжетно-композиционного механизма: трёхкратные попытки, три испытания, три задания обеспечивают динамику сказочного и эпического текста, его ритмическую организацию и мнемоническую устойчивость. В статье различие между «магическими» и «традиционными» числами выделяется как методологический критерий, демонстрируется научная продуктивность данного подхода в сравнительном изучении узбекского и английского фольклорного материала.

**Ключевые слова:** магические числа, сакральность, миф–обряд–фольклор, семиотика, мифосемиотика, структурный анализ, лингвопоэтика, композиционная модель, сравнительное фольклороведение.

**Abstract:** This article provides a theoretical interpretation of the phenomenon of “magic numbers” in folklore texts within the framework of mythological thinking, ritual practice, and the poetics of folklore. The attribution of sacred and mysterious meanings to numbers emerged in close connection with the ancient human aspiration to comprehend the world, the symbolic modelling of natural phenomena, and ritual practices that regulate social life. Anthropological and cultural-historical studies demonstrate that counting in primitive societies did not originate as a logical abstraction but developed

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

in a syncretic unity with collective mystical representations. As a result, certain numbers (3, 4, 5, 7, 9, 12, 40, etc.), beyond their quantitative function, became stable cultural codes expressing such semantic meanings as “boundary,” “completion,” “trial,” “blessing,” “protection,” and “perfection.” Semiotic and mythosemiotic approaches interpret number as a structural element of the archaic text and substantiate its function as a cosmological model and a semantic marker of limits. Within structural and functional-poetic analysis, numbers are viewed as an essential component of the plot-compositional mechanism: triple attempts, three trials, and three tasks ensure the dynamics of fairy-tale and epic narratives, their rhythmic organization, and mnemonic stability. The article distinguishes between “magic” and “traditional” numbers as a methodological criterion and demonstrates the scholarly effectiveness of this distinction in the comparative study of Uzbek and English folklore materials.

**Keywords:** magic numbers, sacrality, myth–ritual–folklore, semiotics, mythosemiotics, structural analysis, linguopoetics, compositional pattern, comparative folklore.

### **Kirish**

Raqamlar inson tafakkurining eng qadimiy va universal belgilaridan biri bo‘lib, ular dastlab amaliy ehtiyoj – sanash, hisoblash, o‘lchash kabi jarayonlar bilan bog‘liq holda shakllangan. Biroq folklor va marosimiy matnlarda raqamlarning vazifasi ko‘pincha oddiy miqdor ifodalash bilan cheklanmaydi: ayrim sonlar “sirli”, “sehrli”, “muqaddas” mazmunga ega timsol sifatida turg‘unlashadi. Bu hodisa raqamning madaniy-kognitiv tabiatini hamda uning mifologik dunyoqarash bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Xalq og‘zaki ijodida raqamlar, ayniqsa, ertak va dostonlarda kompozitsion qurilma, takror va kuchaytirish vositasi, sinovlar ketma-ketligi, qahramon yo‘li va epik giperbola mexanizmlarini tartibga soluvchi belgi bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan “sehrli raqamlar” masalasi folklorshunoslikning umumiy nazariy muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Raqam motivini tahlil qilish orqali folklor matnlarining ichki semantik qatlamlari, xalq dunyoqarashi va madaniy kodlar tizimi chuqurroq anglanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – “sehrli raqamlar” fenomeniga doir asosiy ilmiy yondashuvlarni (mif-ritual, antropologik, semiotik, struktur-poetik, lingvopoetik) jamlab, o‘zbek va ingliz folklori materiallarini qiyosiy o‘rganish uchun metodologik tayanchlarni aniqlashdir.

### **Adabiyotlar tahlili**

Raqamlarga sig‘inish yoki raqamlarni muqaddaslashtirish hodisasi qadimgi insonning olam va tabiat sirlarini tushunishga bo‘lgan intilishi, noma‘lum jarayonlarni izohlash va nazorat qilish istagi bilan bog‘liq. Mifologik tafakkurda olam ko‘pincha tartibsizlikdan tartibga o‘tish modeli orqali anglanadi; marosim esa shu tartibni tiklash, saqlash yoki yangilashning ramziy mexanizmi sifatida ishlaydi. Ana shu jarayonda raqamlar marosimiy takror va ritm bilan mustahkamlanib, “turg‘un belgi”ga aylanadi. Ibtidoiy jamiyatlarda sanoqning paydo bo‘lishi haqidagi qarashlar shuni ko‘rsatadiki, dastlab sonlar faqat matematik birlik sifatida emas, balki sehrli va e‘tiqodiy vazifani ham bajargan. Sonlarning “sehrli”ligi ularning real miqdoridan ko‘ra, jamiyat ongida shakllangan ramziy ahamiyati bilan belgilanadi. Natijada 3, 4, 5, 7, 9, 12, 40 kabi sonlar turli madaniyatlarda qayta-qayta uchraydigan, universal xususiyat kasb etgan “madaniy kodlar” sifatida yashaydi. Bunday sonlarning universallasuvi bir tomondan arxaik kosmologik tasavvurlar (dunyoning qatlamlarga bo‘linishi, unsur va tomonlar, vaqt sikllari), ikkinchi tomondan esa marosimiy tajribada takrorlanadigan amaliyotlar (sinov, poklanish, o‘tish davri, himoya rituali) bilan izohlanadi. Mif–marosim–folklor tizimi doirasida raqamlar muqaddaslashuvi bir yo‘la uch bosqichda ko‘rinadi: mifologik tushuncha shakllanishi, marosimiy takror orqali turg‘unlashuv, folklor matniga singib poetik ramzga aylanish.

Antropologik tadqiqotlar ibtidoiy tafakkurda sonlar ko‘pincha abstrakt mantiqiy birlik sifatida emas, balki mistik-kollektiv tasavvurlar tizimida mavjud bo‘lganini asoslaydi. Bu yondashuvga ko‘ra, muayyan sonlar “hisobning oxiri”, “chegara”, “tugallanish nuqtasi” semantikasi bilan bog‘lanib, ramziy–strukturaviy vazifa bajaradi. “Sanoqning cheki” konsepsiyasi raqamlarning ilk funksiyasi real miqdorni aniq belgilashdan ko‘ra, jarayonni chegaralash va yakunlash bo‘lganini anglatadi. Masalan, ibtidoiy marosimlar va afsunlarda muayyan amalning uch marta, yetti marta yoki qirq marta takrorlanishi ko‘pincha real hisob ehtiyojidan kelib chiqmaydi; aksincha, “to‘liqlik” va “yakun” ma‘nosini beruvchi ramziy qolip sifatida ishlaydi. Madaniy-tarixiy yondashuv bu hodisani arxaik jamiyatlarining yashash tarzi, urf-odati, tabiat sikllarini kuzatishi va diniy tasavvurlari bilan bog‘laydi. Natijada sonlar “moddiy” belgidan “ma‘naviy” belgiga ko‘chadi: ularning miqdoriy mazmuni ikkilamchi, ramziy-semantik mohiyati esa birlamchi bo‘lib qoladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

Semiotik va mifosemiotik izlanishlarda raqamlar arxaik matnlarning ichki tashkil etuvchi elementi sifatida ko‘riladi. Bunda son “dunyoqarash kodi” vazifasini bajaradi: u olam tuzilishini, kosmik tartibni, makon-zamon modelini ramziy ravishda ifodalaydi. Arxaik va mifopoetik matnlarda 3, 7, 12, 40 kabi raqamlarning tez-tez uchrashi tasodifiy hodisa emas. Uchlik ko‘pincha “tugallangan birlik”, “rivojlanish bosqichlari”, “uch qatlamli olam” modelini anglatadi; yettilik esa “mukammallik” va “kosmik tartib” ramzi sifatida talqin qilinadi. O‘n ikki soni vaqt va kalendar tizimlari bilan, qirq esa sinov, poklanish, o‘tish davri kabi marosimiy semantikalar bilan bog‘lanadi. Bu yondashuvlar sonni nafaqat matn ichidagi bezak, balki matnni tashkil qiluvchi struktur belgi deb ko‘radi. Raqamlar takror mexanizmi orqali marosimiy ritmni “eslatadi”, syujetni tartiblaydi va semantik markazlarni belgilaydi. Shuning uchun ham sonlar folklor poetikasida “ichki mexanizm”ni ko‘rsatadigan signallar sifatida tahlil qilinadi.

Folklor nazariyasida raqamlar tizimi, odatda, ikki yirik yo‘nalishda o‘rganiladi: mif-ritual/semiotik yondashuv hamda poetik-funksional yondashuv. Poetik-funksional talqinda raqam matnning kompozitsion qurilmasi bilan chambarchas bog‘liq: u syujetning harakatini tezlashtiradi yoki tartibga soladi, parallelizm va ritmni kuchaytiradi, sinovlar ketma-ketligini yaratadi. Struktur tahlilda ertak va dostonlarda uchlikning o‘rni ayniqsa muhim. Uch martalik urinish, uch sinov, uch vazifa, uch yo‘l kabi kompozitsion qoliplar qahramonning yo‘lini “mantiqan” yurituvchi mexanizmga aylanadi. Bu mexanizm nafaqat syujetni dinamik qiladi, balki og‘zaki ijro sharoitida eslab qolish va qayta aytish jarayonini ham yengillashtiradi. Takror – og‘zaki nutqning tabiiy xususiyati bo‘lib, raqamli qoliplar takrorning eng barqaror shaklini ta‘minlaydi. Motivologik yo‘nalish raqam bilan bog‘liq motivlarni tasniflash orqali qiyosiy tadqiqot uchun qulay metodik platforma yaratadi. Xususan, motivlar indekslari o‘zbek va ingliz materiallarida “o‘xshash motivlar qanday qolipda qaytadi?” degan savolga tizimli javob topishga yordam beradi. Shunday qilib, struktur va motiv yondashuvlari raqamni “tasodifiy bezak” emas, balki kompozitsion hamda semantik tizim sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Tilshunoslikda “sehrli raqamlar” masalasi numerologiya, semantika, pragmatika va lingvokulturologiya kesishuvida tahlil qilinadi. Bu yo‘nalishda raqamlar tildagi barqaror birikmalar, maqollar, aforizmlar, frazeologizmlar va diskurs tarkibida qanday semantik ko‘chishga uchrashi o‘rganiladi. Ko‘pincha son o‘zining asl miqdor qiymatini yo‘qotib, “ko‘plik”, “to‘liqlik”, “kuchaytirish”, “me‘yor”, “yakun” kabi ma‘nolarni beradi. O‘zbek tilidagi “uchdan keyin puch”, “besh kunlik dunyo”, “qilni qirq bo‘lib” kabi iboralar raqamning ramziy ma‘noda ishlashiga misol bo‘la oladi. Bunday birliklarda raqam real hisobni emas, balki umumlashtiruvchi ma‘no va kuchaytirish semantikasini ifodalaydi. Shuningdek, paremiologik birliklarda raqam “axloqiy-aksiologik” qatlamni ham mustahkamlaydi: me‘yor, sabr, sinov, baraka, to‘liqlik kabi tushunchalar raqam orqali turg‘un shaklga ega bo‘ladi.

Ingliz paremiologiyasida ham raqamli birliklar keng: “Third time’s the charm” iborasida uchlik yakuniy muvaffaqiyat nuqtasi, “Seven days make a week” kabi birliklarda yettilik tartib va kosmik ritm ramzi sifatida ishlaydi, “Forty days and forty nights” birikmasida esa qirq soni sinov va o‘tish davrini ifodalaydi. Ko‘rinadiki, raqamlarning lingvopoetik hayoti ularning madaniy semantikasi bilan bevosita bog‘liq.

### **Natijalar va ularning tahlili**

O‘zbek folklorshunosligida raqamlarni tahlil qilishda “sehrli raqamlar” va “an‘anaviy raqamlar” farqi alohida metodik ahamiyatga ega. “Sehrli raqamlar” mifologik asosga ega, turg‘un va ko‘pincha universal ramz sifatida ishlaydi; “an‘anaviy raqamlar” esa kontekstual, ijro jarayoniga bog‘liq, muqaddaslashuv jarayonini boshdan kechirmagan miqdor birliklari sifatida ko‘rinadi. Bu farqlash folklor matnida raqamning funksiyasini aniqlashga yordam beradi. Masalan, “uch boshli maxluq”, “yetti avlod”, “qirq chilton” kabi ifodalar ko‘pincha ramziy kod sifatida ishlaydi va syujetning “epik darajasi”ni belgilaydi. Bunda raqam real miqdorni bildirishi shart emas; aksincha, u “giperbola”, “baraka/himoya”, “sinovning tugallanishi” kabi semantikalarni ifodalaydi. O‘zbek materialida 3, 4, 5, 7, 9, 40 kabi raqamlarning faol qo‘llanishi, ingliz folklorida esa 3, 7, 12, 40 sonlarining ko‘proq ramziy qatlamda uchrashi qiyosiy tadqiqot uchun muhim. Bu holat universallik (arxaik modelning umumiyligi) va milliylik (diniy qatlam, tarixiy tajriba, janr an‘anasi) mezonlari asosida izohlanadi.

Ingliz xalq og‘zaki ijodini o‘rganishda “sehrli raqamlar” ko‘pincha ertak poetikasi va afsona strukturasi umumiy masalalari ichida ko‘riladi. Britaniya xalq ertaklari va afsonalarini jamlash hamda tematik-syujet tiplari bo‘yicha sistemalashtirishda ma‘lumotnoma xarakteridagi manbalar muhim; ular matn korpusini keng ko‘lamda ko‘rish imkonini beradi. Ertakni madaniy institut sifatida tahlil qiluvchi nazariy yondashuvlar esa ertakdagi turg‘un strukturalar, takror va uchlik sinovlarining kommunikativ hamda ijtimoiy-psixologik asoslarini izohlashda qo‘l keladi.

### Xulosa

Tadqiqotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, “sehrli raqamlar” folklorida tasodifiy element emas, balki qadimgi mifologik tafakkur, marosimiy amaliyot va poetik an‘ana mahsuli sifatida shakllangan turg‘un ramziy tizimdir. Raqamlarning muqaddaslashuvi avvalo arxaik e‘tiqod va kosmologik tasavvurlarga tayanadi, marosimiy takror orqali barqarorlashadi va folklor matnlarida syujet-kompozitsion hamda semantik belgi sifatida yashaydi. Antropologik yondashuvlar sonlarning dastlabki semantik vazifasi “chegara” va “yakun” bilan bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi; semiotik va mifosemiotik talqinda raqamlar dunyoqarash kodi sifatida arxaik matnni tashkil etadi; struktur va poetik-funksional tahlilda raqamlar syujet mexanizmini yurituvchi kompozitsion qolip bo‘lib xizmat qiladi; lingvopoetik yo‘nalishda esa raqam barqaror birliklarda miqdoriy qiymatdan ko‘ra ramziy-pragmatik ma‘noga o‘tadi.

O‘zbek folklorshunosligida “sehrli raqamlar” va “an‘anaviy raqamlar” farqini metodik mezon sifatida qo‘llash raqam motivining matndagi haqiqiy vazifasini aniqlashga imkon beradi. Qiyosiy kontekstda esa o‘zbek va ingliz folklorida ayrim raqamlarning universalligi hamda farqlilik sabablarini aniqlash, raqamlarning genezisi va funksiyalar tizimini alohida model sifatida tadqiq etish ilmiy jihatdan dolzarb yo‘nalish bo‘lib qoladi.

### REFERENCES

1. Mircea Eliade. *The Sacred and the Profane: The Nature of Religion*. – New York: Harcourt, Brace & World, 1959. – P. 86–93, 112–118; James George Frazer. *The Golden Bough: A Study in Magic and Religion*. – London: Macmillan, 1922. – P. 227–235, 308–315.
2. Lévy-Bruhl L. *Les fonctions mentales dans les sociétés inférieures*. – Paris: Alcan, 1910; Tylor E. B. *Primitive Culture*. – London: John Murray, 1871; Богораз В. Г. Чукчи. – Л.: Изд-во АН СССР, 1934. оэпического. Избранное. – М.: Прогресс - Культура, 1995. – 624 с.
3. Propp V. Ya. *Morphology of the Folktale*. Translated by L. Scott. – Austin: University of Texas Press, 1968. – 158 p.
4. Thompson S. *Motif-Index of Folk-Literature: A Classification of Narrative Elements in Folktales, Ballads, Myths, Fables, Mediaeval Romances, Exempla, Fabliaux, Jest-Books, and Local Legends*. – Rev. and enl. ed. – Bloomington: Indiana University Press, 1955–1958. – Vols. 1–6.
5. Мелетинский Е.М. *Поэтика мифа*. М., 1976. – С.207.
6. Лотман Ю.М. «Договор» и «вручение себя» как архетипические модели культуры // Лотман Ю. М. *Избранные статьи: В 3 т. – Т. 3*. – Таллин: Александра, 1993. – 480 с. – С. 345–355.
7. Иванов В. В., Топоров В. Н. *Исследования в области славянских древностей: лексика и мифология*. – М.: Наука, 1974. – С. 121–134. Иванов В. В., Топоров В. Н. *Славянские языковые моделирующие семиотические системы*. – М.: Наука, 1965. – С. 96–110.
8. Хроленко А. Т. *Числительные в разных жанрах фольклора // Научные труды Курского пединститута*. 1972. – т.8 (102). *Научно-практические очерки по русскому языку*. – Вып. 6. – С. 72–88.
9. Menninger, K. *Number Words and Number Symbols: A Cultural History of Numbers*. Cambridge, MA: MIT Press, 1969.
10. Briggs, K. M. *A Dictionary of British Folk-Tales in the English Language*. London: Routledge, 1970–1971. – Vols. 1–2. – P. ix–xii, 1–15.
11. Zipes, J. *Fairy Tale as Myth / Fairy Tale as Social Practice* (yoki ertak nazariyasiga oid boshqa asar). New York: Routledge, turli yillar.
12. Жўраев М. Ўзбек халқ эртақларида “сеҳрли” рақамлар. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 11.
13. Jahongirov G‘. *O‘zbek bolalar folklori*. – Toshkent: Fan, 1976. – В. 45–47.
14. Жуковская Н.Л. Семантика чисел в калмыкском эпосе “Джангар” // “Джангар” и Проблемы эпического творчества тюрко-монгольских народов. - М., 1980. – С.212; Число в монгольской культуре // Археология, этнография, антропология Монголов. - Новосибирск, 1987 – С. 241–258; Число девять как символ Полноты и завершенности в архаическом мировоззрении и традиционной культуре (на Монгольском материале) // Шаманизм как религия; генезис, реконструкция, традиции. - Якутск, 1992. –С.171–183
15. Богораз В. Г. Чукчи. – Ленинград: Издательство АН СССР, 1934. – 631 с.
16. Фролов А. Б. *Символика чисел в традиционной культуре*. – Санкт-Петербург: Наука, 1997. – 256 с.
17. Ivanova, Z. P. *Типични числа в българските народни песни*. (maqola).

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

18. Гизатуллина Л. Р. Нумерологические фразеологические единицы в английском и татарском языках: автореф. Дис. ... канд. Филол. Наук: 10.02.20. – Уфа, 2004. – 4-8 с.

19. Дубровская В. В. Категория количества в лексико-семантическом пространстве английского языка: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.04 – германские языки. – М., 2006. – 22-74 с.

20. Жаботинская С. А. Когнитивные и номинативные аспекты класса числительных: На материале современного английского языка: дис. ... доктора филологических наук : 10.02.19 – Теория языка. – Москва, 1992. – 7-15 с.